




# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 709,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 116,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,6 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 19,9 % ga o'sishi kuzatildi, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 75,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning – 4,3 % ga kamayishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,018 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**




### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-may

FHI,% da



2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 483,5 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,6 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-may


96,2 %

2022- yil yanvar-may

96,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,11%ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 0,14 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 42,8 % (40,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,2 % (3,9 %) va quyi texnologiyali – 50,5 % (51,7 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 41,6 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,9 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,7%), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,9 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,6 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,9 %) ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da \*


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip





Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 28 188,1 tonna (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 1,6 % ga oshgan), paxta chigiti 59 971,8 tonna (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 11,5 % ga oshgan), 13 016,8 tonna paxtadan yigirilgan ip (5,9 % oshgan), 29 591 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (29,8 % oshgan), 7 266 dona maxsus yengil avtomobil (44,9 % ga oshgan), o'simlik yog'i 5 999,4 tonna (43,0 % kamaygan), xo'jalik sovuni 1 217,98 tonna (33,4 % kamaygan) hamda 37161,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (100 % bo'lgan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil Yanvar-may	2022- yil Yanvar-may	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	22799	29591	6792
Maxsus yengil avtomobillar, dona	5016	7266	2250
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	12297,0	13016,8	719,8
Paxta tolasi,tonna	27750,0	28188,1	438,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	37173,0	37161,8	-11,2
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	10533,1	5999,4	-4533,7


Yanvar-may, yirik korxonalar bo'yicha

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,5 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 89,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,4 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,8 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1 517,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 46,2 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 237,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2020- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 113,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 19,7 %ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 486,1 mlrd so'mni tashkil etdi.




### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2020- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 75,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 185,2 %ni va ishlab chiqarish hajmi 47,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2020- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,02 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 20,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,11 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 83,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 7,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-may oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,34 %ni, fizik hajm indeksi 91,3 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,1 mlrd so'mni tashkil etdi.







### Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 100,2 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,25 %ni, fizik hajm indeksi 168,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 16,3 mlrd so'mni tashkil etdi.



### Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2020- yil yanvar-may oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 42,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,99 %ni, fizik hajm indeksi 119,5 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 128,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2020- yil yanvar-may oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 46,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 120,1 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,95 %ni, fizik hajm indeksi 127,0 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 719,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 184,9 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,9 %ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	71,9	130,4	58,5
Issqlik energiyasi, ming gkal	47,6	45,1	-2,5
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm.	746417,0	760115,0	13698,0

Yanvar – may, yirik korxonalar bo'yicha

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,3 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	2016672,0	2558749,0	542077
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	47925353,0	49892971,0	1967618
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	9450270,0	8751824,0	-698446

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 26,9 %ga, tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 4,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 204,7 mlrd so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 126,0 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 62,7 %ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-may

37,6%

2022- yil  
yanvar-may

39,7%

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-may

62,4%

2022- yil  
yanvar-may




60,3%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 71,6 %ni , Urganch shahrida 11,5 %ni va Urganch tumanida 3,1 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (126,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (128,1 %), Gurlan tumanida (156,5 %), Yangibozor tumanida (273,9 %) hamda Urganch tumanida (164,9 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 71,6 %ni , Urganch shahrida 11,5 %ni va Urganch tumanida 3,1 %ni tashkil etdi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 83,0 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 5,0 %ni, Yangibozor tumanida 2,4 %ni tashkil etdi.

2 012,0


mlrd so'm

2021-yil yanvar-may

2 624,3


mlrd so'm

2022-yil yanvar-may




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi

62,4%



101,9 %

2021- yil



130,4 %

2022- yil

Xorazm viloyati	130,4	2624,3
Urganch shahri	105,1	131,1
Xiva shahri	110,8	35,0
Bog'ot tumani	116,3	16,9
Gurlan tumani	213,5	40,0
Qo'shko'pir tumani	117,3	14,6
Urganch tumani	124,3	32,6
Hazorasp tumani	111,0	17,3
Tuproqqal'a tumani	129,9	2178,2
Xonqa tumani	123,1	41,0
Xiva tumani	94,6	17,4
Shovot tumani	107,5	15,7
Yangiariq tumani	143,2	22,0
Yangibozor tumani	666,3	62,5

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 52,7 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 22,2 %ni, Xonqa tumanida 4,1 %ni tashkil etdi.




1 325,5 mlrd. so'm



2021-yil yanvar-may

1 580,4 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-may



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati  
mlrd so'm

**Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 54,5 %, shuningdek, Urganch shahrida 14,9 %ni, Urganch tumanida 5,4 %ni, Shovot tumanida 4,1 %ni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**

**2021- yil**

4 935,4 mlrd so'm

**2022- yil**

6 709,9 mlrd so'm



**2021- yil**

106,6 %

**2022- yil**

116,3 %

Xorazm viloyati	116,3	6709,9
Urganch shahri	106,8	998,8
Xiva shahri	105,3	77,8
Bog'ot tumani	104,8	144,7
Gurlan tumani	114,8	254,2
Qo'shko'pir tumani	98,9	168,9
Urganch tumani	118,1	363,0
Hazorasp tumani	98,9	151,6
Tuproqqal'a tumani	116,2	3659,8
Xonqa tumani	104,7	227,9
Xiva tumani	110,2	115,8
Shovot tumani	104,9	275,5
Yangiariq tumani	117,2	147,9
Yangibozor tumani	112,0	124,0

FHI, % da

mlrd so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (64 562,7 ming so'm), Urganch shahrida (6 794,1 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 481,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Xorazm viloyati	114,4	3481,2
Urganch shahri	105,4	6794,1
Xiva shahri	103,4	815,1
Bog'ot tumani	103,0	852,1
Gurlan tumani	142,4	1669,4
Qo'shko'pir tumani	97,6	958,3
Urganch tumani	115,7	1762,9
Hazorasp tumani	97,7	761,9
Tuproqqal'a tumani	112,7	64562,7
Xonqa tumani	102,9	1187,1
Xiva tumani	108,4	772,6
Shovot tumani	103,3	1578,1
Yangiariq tumani	115,4	1241,2
Yangibozor tumani	110,2	1384,1

Xorazm viloyati

2021- yil

2 602,9 ming so'm

2022- yil

3 481,2 ming so'm



105,1 %

2021- yil

114,4 %


2022- yil

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1037,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,5 %ni tashkil etdi.



ulushi, % da  
mlrd soʻm

Xorazm viloyati

2021- yil

808,7 mlrd soʻm

2022- yil

1 037,2 mlrd soʻm



16,4 %

2021- yil

15,5 %

2022- yil

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 181,5 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 53 121,2 ming so'mni, Urganch shahrida 3 283,4 ming so'mni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati**

2021- yil

1 760,2 ming so'm

2022- yil

2 181,5 ming so'm



103,6 %

2021- yil

123,9 %

2022- yil

Xorazm viloyati	123,9	2181,5
Urganch shahri	109,4	3283,4
Xiva shahri	105,3	597,5
Bog'ot tumani	103,1	318,3
Gurlan tumani	153,9	497,9
Qo'shko'pir tumani	107,8	186,8
Urganch tumani	161,5	627,9
Hazorasp tumani	103,3	199,9
Tuproqqal'a tumani	124,2	53121,2
Xonqa tumani	107,7	548,3
Xiva tumani	98,5	265,1
Shovot tumani	101,5	289,6
Yangiariq tumani	117,9	358,7
Yangibozor tumani	269,5	933,3

*o'sish sur'ati*

*ming so'm*

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 389 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 830 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,9 % ) Urganch shahriga, 504 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 402 tasi (9,2 %) Qo'shko'pir tumaniga, 389 tasi (8,9 %) Xonqa tumaniga va 365 tasi (8,3 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.

